BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA IJTIMOIY-MADANIY KOMPETENTLIKNI MUZEY PEDAGOGIKASI VOSITASIDA RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK JIHATLARI

Marayimova Kibriyoxon Islomjon qizi
Farg‘ona davlat universiteti, p.f.b.f.d (PhD)
ORCID ID 0009-0002-8305-8285

Annotatsiya

Ushbu maqolada kompetensiya tushunchasi, kompetentlik bo‘yicha olib borilgan tadqiqot ishi natijalari tahlil qilingan. Ijtimoiy-madaniy kompetentlik mazmuni, ijtimoiy kompetentlik bo‘yicha adabiyotlar tahlili uni bo‘lajak o‘qituvchilarda rivojlantirish zaruriyati asoslangan. Pedagogika universitetlarida bo‘lajak o‘qituvchilarni ijtimoiy-madaniy kompetentligini rivojlantirish bo‘yicha horijiy tajribalar yoritib berilgan. Shuningdek, mazkur kompetentlikni rivojlantirish usullari va yondashuvlari tahlil qilinadi, uni o‘qitishda yurtimiz kontekstida mavjud bo‘lgan muammolar bayon qilinadi va ularni hal qilish usullari taklif etiladi.

Kalit so‘zlar: *kompetensiya, kompetentlilik, kompetentli yondashuv, ijtimoiy-madaniy kompetentlik, pedagogik faoliyat, komponent.*

KIRISH

Jahon miqyosida ta’limga kompetensiyaviy yondashish, raqobatbardosh ta’lim shakli hamda bitiruvchilarni shakllantirish, pedagog kadrlarning kasbiy kompetentligini yuksaltirish, integratsion ta’lim jarayonini yanada rivojlantirish masalalari yuzasidan turli ishlar olib borilmoqda. Darhaqiqat, yurtimizda yuz berayotgan o‘zgarishlar orasida o‘qituvchi, pedagoglarning kasbiy faoliyatini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish, bilimlarini jahon standartlariga mos tarzda yanada takomillashtirish masalalari eng muhim jihatga aylanib bormoqda. Ayniqsa, bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy kompetensiyalarini belgilab beruvchi eng asosiy tamoyillardan biri hisoblangan kasbga oid ko‘nikmalarni yuksak darajada egallashi, ularda pedagogik jarayonni yuqori saviyada olib borishini ta’minlaydigan sifatlarni shakllantirish bo‘yicha tizimli ravishda ishlar amalga oshirilmoqda. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning o‘qituvchi pedagoglarga qarata “Bugungi kunda O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davri poydevorini yaratyapmiz. Bunda bizning eng yaqin ko‘makchilarimiz ustoz va murabbiylar, ilmiy va ijodkor ziyolilardir”,- deya aytgan so‘zlari ularga qaratilayotgan alohida e’tiborni yana bir bor ta’kidladi. Shu jihatlarni inobatga olgan holda o‘qituvchi pedagoglardagi ijtimoiy-madaniy kompetentlikni rivojlantirish va ular uchun yetarlicha shart-sharoitlar yaratish masalalari yildan yilga o‘zining dolzarblilik aks etmoqda. O‘qituvchilardan har jihatdan mukammal pedagogik mahoratga ega kadr tayyorlash uchun xizmat qiladigan amaliy jihatdan yuqori natija beradigan uslubiy tavsiyalar yaratish muhim hisoblanadi.

Bugungi kunga kelib, “kompetensiya” tushunchasi ta’lim mazmunini modernizatsiyalashning, o‘zida ta’limning intellektual va malakaviy tarkiblari natijasini birlashtiruvchi markaziy tushunchaga aylandi. Ta’limda kompetentli

yondashuv zarur bilim bazasi shartligini inkor qilmaydi, balki kompetensiyaning integral natijadorligini ko‘zda tutadi.

“Kompetentlilik” va “bilimlilik” nisbati haqida so‘z borganda, pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslarini tadqiq qilgan olimlar N.A.Muslimov, M.H.Usmonboyeva, D.M.Sayfurov va A.B.To‘rayevlar kompetensiyaning o‘rganish (mashq qilish) natijasida vujudga kelishini, kompetentlilik esa faoliyatda nazariy bilimlardan foydalanishda, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon etishda namoyon bo‘ladi, degan uyg‘un qarashni olg‘a surganlar[4].

Mamlakatimizda pedagog-o‘qituvchilarning kasbiy faoliyati, kompetensiyalarini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy-metodik izlanishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi pedagog olimi M.B.Bekmurodov kompetensiya mutaxassisning o‘z bilimlari, ko‘nikmalari va harakatlarining umumlashgan usullarini safarbar qilish qobiliyati sifatida belgilashini bildirdi. Tayanch kompetensiyalar pedagog-mutaxassisning universalligini ta’minlaydi va shuning uchun chuqur ixtisoslashgan bo‘lolmaydi. Mutaxassis o‘z kompetensiyalarini faqat faoliyatida, muayyan vaziyatda namoyon qiladi. Namoyish etilmagan kompetensiyalar esa, potensial imkoniyat sifatida mavjud bo‘lishini qayd qiladi.

Tadqiqotchi olim N.Muslimovning fikricha, kompetentlik – bu talabaning shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatga ega kasbiy faoliyatni amalga oshirilishi uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarning egallanishi hamda ularni kasbiy faoliyatda qo‘llay olishi bilan ifodalanadi. Mazkur o‘rinda «kompetentlik» tushunchasining mohiyati ham to‘la ochiladi, u quyidagi ikki ko‘rinishda namoyon bo‘ladi: kompetentlik talabalarning shaxsiy sifatlari to‘plami hamda kasbiy sohaning tayanch talablari sifatida. Yuqoridagi ta’riflarning tahlili shundan dalolat beradiki, ko‘nikma va qobiliyatlar (faoliyat komponentlar) bilan bir qatorda ijtimoiy kompetensiya tarkibiga kognitiv tarkibiy qismlar (tushunish, ifodalash, tahlil qilish va h.k), shuningdek, shaxsning fazilatlari ham kiradi. Ta’lim sohasidagi kompetensiyaga asoslangan yondashuvning konseptual qarashlarining tahlili shuni ko‘rsatadiki, ijtimoiy pedagogikada “boshqa odamlar bilan o‘zaro munosabatda, oilani, oilaviy munosabatlarni mustahkamlash va farzandlarni tarbiyalashda “ongli” va o‘zlarining ijtimoiy – pedagogik imkoniyatlarini amalga oshirish qobiliyati” deb hisoblaydi”[4].

S.N.Krasnokutskayaning ta’kidlashicha, ijtimoiy kompetensiya shaxs ijtimoiylashuvning ajralmas qismi bo‘lib, bu ijtimoiy rollarning o‘zgarishiga dosh bera oladigan shaxsning boshqalar bilan hamkorlik qilish, aloqalar o‘rnatish, oson moslashuv, o‘zgarishga tayyorlik, o‘z taqdirini o‘zi belgilash, o‘z harakatlarining oqibatlari uchun ijtimoiy javobgarlikni o‘z zimmasiga olish qobiliyatini ko‘zda tutadi[5].

Pedagogik faoliyatda kasbiy kompetentlik umumiy tuzilmasining muhim tarkibiy qismlaridan biri – bu ijtimoiy-madaniy kompetentlik hisoblanadi. Zero zamonaviy o‘qituvchi nafaqat o‘quvchiga bilim beradi, ma’lumot, axborot yetkazadi, balki rivojlanayotgan shaxs va jamiyat o‘rtasida vositachi rolini ham bajaradi. Ijtimoiy-madaniy kompetentlikning asosiy vazifalari sirasiga moslashish, ijtimoiy yo‘nalganlik, shaxsiy va umumijtimoiy tajribalarning uyg‘unlashuvi kabi jihatlarni kiritish mumkin. Shaxs ijtimoiy-madaniy kompetentligining qay darajada ekanligi

o‘zaro shaxslararo munosabatlarni olib borish, faoliyatni yo‘lga qo‘yish jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, psixologlar o‘tkazgan tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, shaxsning yangi ijtimoiy, globallashuv shart sharoitlariga moslashuvi jarayonida insonlardagi ijtimoiy kompetentlik darajasining shakllanganligi alohida o‘rin tutadi. Ekologik, siyosiy, mafkuraviy, ijtimoiy o‘zgarishlar nafaqat ijtimoiy tafakkur rivojini belgilaydi, balki insonlarning o‘zini o‘zi anglashi, hayotiy qadriyatlari, shaxsiy muammolariga ham ta’sir ko‘rsatadi.

Ijtimoiy-madaniy kompetentlikning mazmunini aniqlash maqsadida o‘tkazilgan ilmiy adabiyotlar tahlili uning quyidagi o‘ziga xos jihatlarini ajratib ko‘rsatish imkonini berdi: birinchidan, ijtimoiy-madaniy kompetentlik o‘zida jamiyat va madaniyat talablarini ifoda etishi mumkin. Bu esa, shaxsning ijtimoiy-axloqiy meyorlar mazmuni haqidagi bilimlarga, madaniy talablar asosida faoliyat shakllarini tashkillashtirish ko‘nikmasiga egaligi hamda uning qadriyatli yo‘nalganligi bilan izohlanadi. ikkinchidan, ijtimoiy-madaniy kompetentlik insonning ijtimoiy o‘zaro sheriklik, hamkorlik subyekti sifatidagi yaratuvchilik xususiyatlarini ham aks ettiradi[7].

Oliy ta’lim tizimida ijtimoiy-madaniy kompetentlik turli madaniyat vakillari bilan o‘zaro munosabatlar, axloqiy meyorlarni tushunish va ularga rioya qilish bilan bog‘liq ko‘nikmalar, bilimlar va qobiliyatlar majmuidir. Yurtimizdagi ta’lim tizimi talabalarning madaniyatlararo tajribasini boyitish, bag‘rikenglik va boshqa madaniyat vakillari bilan samarali muloqot qilish qobiliyatini rivojlantirish uchun ijtimoiy-madaniy kompetentlikni shakllantirishga intiladi. Ijtimoiy-madaniy kompetentlik ta’lim jarayoni sifatiga bevosita ta’sir ko‘rsatib, O‘zbekiston madaniy merosining xilma-xilligini chuqur anglash va qabul qilishni ta’minlab, ijtimoiy tinchlik va barqarorlikni saqlash uchun zarur bo‘lgan madaniyatlararo tushuncha va bag‘rikenglikni rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Kompetentlikga asoslangan yondashuvning maqsadi zamonaviy ta’lim nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda, mutaxassisning nazariy bilimlari va uni amaliy qo‘llash o‘rtasidagi uzilishni yengishga intilishdir. Shuning uchun zamonaviy o‘quv jarayoni amaliyotda qo‘llanilishi qiyin bo‘lgan bilimlarni talabalarga berishdan iborat emas, aksincha shu bilimlarni dolzarb kasbiy muammolarni hal qilish uchun safarbar etish, shuningdek o‘quv jarayonida bu kabi muammolarni talabalarning o‘zlari mustaqil ravishda hal qilishlari uchun sharoit yaratishdan iborat bo‘lishi kerak. Bo‘lajak o‘qituvchilarda ijtimoiy-madaniy kompetentlikni rivojlantirishning barcha xususiyatlarini to‘liq o‘rganish uchun quyidagi qator jihatlarga e’tibor qaratish lozim:

- ta’lim-tarbiya jarayonida milliy, ma’naviy va tarbiyaviy qadriyatlarga talabalarda ijtimoiy-madaniy kompetentlikni rivojlantirishning muhim omili sifatida qarash;

- bo‘lajak o‘qituvchilarda ijtimoiy-madaniy kompetentlikni rivojlantirish uchun ularda yuqori darajadagi kommunikativ va psixologik to‘siqlarni kamaytirishga doir maxsus bilimlar tizimini shakllantirish;

- bo‘lajak o‘qituvchilarning ijtimoiy-madaniy kompetensiyalarini rivojlantirishning nazariy asoslarini aniqlash masalasini hal qilish;

- ijtimoiy-madaniy kompetentlikni rivojlantirish xususiyatlarini hisobga olgan holda kasbiy pedagogik ta'lim sharoitida ushbu jarayonning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash maqsadga muvofiq.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28-yanvardagi PF-60-sonli «2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmoni.

2. Педагогический словарь-справочник/ Авт.-сост.: Э.А.Сейтхалилов, Б.Х. Рахимов, И.У. Маджидов; под общ. ред. Б.Ю. Ходиева; М-во высш. и ср. спец. Образования РУз.- Т.: “OPTIMAL LIGHTS”, 2011. -701с. – стр. 315.

3. Вахобов М.М. Компетенциявий ёндашувга асосланган давлат таълим стандартларини жорий этиш – замонавий таълим парадигмаси сифатида. /Замонавий таълим/ Современное образование. 2016 йил 10 сон, 3-б.

4. Педагогик компетентлик ва креативлик асослари / Муслимов Н.А., Усмонбоева М.Ҳ., Сайфуров Д.М., Тўраев А.Б. — Тошкент, 2015. — 94 бет.

5. Краснокутская, С.Н. Формирование социальной компетентности студентов вуза: автореф. дис. ... канд. пед. наук: 13.00.01 / С.Н.Краснокутская. Ставрополь, 2006. – С. 178.